

ANALYSIS OF THE MAIN ANTHROPONYMS IN THE WORK OF STARRY NIGHTS.

Sottorova Nilufar Tura kizi

Asian University of Technologies.

1st year master's student.

nilufarsottorova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20432430>

YULDUZLI TUNLAR ASARIDAGI ASOSIY ANTROPONIMLAR TAHLILI.

Sottorova Nilufar Tura kizi

Osiyo Texnologiyalar Universiteti.

1-bosqich magistranti.

nilufarsottorova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yulduzli tunlar asaridagi asosiy antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan tarixiy shaxs nomlari, ularning ma'nosi, kelib chiqishi hamda badiiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, antroponimlarning qahramon xarakterini ochish tarixiy muhitni tasvirlash va asarning milliy ruhini kuchaytirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности основных антропонимов в романе Yulduzli tunlar. Освещаются имена исторических личностей, встречающихся в произведении, их значение, происхождение и художественные функции. Также рассматривается роль антропонимов в раскрытии характера героев, создании исторической атмосферы и усилении, национального колорита произведения.

Abstract. This article analyzes the linguopoetic features of the main anthroponyms in Yulduzli tunlar. It examines the names of historical figures used in the novel, their meanings origins and artistic functions. The article also highroponyms the role of anthroponyms in revealing characters depicting the historical environment and streng thening the national spirit of the work.

Kirish. "Yulduzli tunlar" - o'zbek yozuvchisi Primqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman. Asarda Z.M.Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif mazkur roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan. " Yulduzli tunlar"ga " Boburnoma" hamda "Humoyunnoma" asarlari asos bo'lgan. Bu asar dunyoga mashhur o'zbek hukmdori , atoqli shoir, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Z.M.Bobur hayotiga bag'ishlangan asar bo'lib, zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi. O'zbek xalq yozuvchisi P. Qodirov ushbu roman talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanligini aytgan.

Yulduzli tunlar asarida antroponimlar (inson nomlari) badiiy maqsadda juda faol qo'llangan. Ular qahramonlarning xarakteri kelib chiqishi, tarixiy mavqeyi va asar ruhiyatini ochib beradi.

Bugungi kunimizda ham "Yulduzli tunlar" asari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu asarni ko'plab adabiyotshunos olimlarimiz o'rgangan. Lekin onomastik jihatdan hali o'rganilmagan. Biz bu maqolada "Yulduzli tunlar" asaridagi antroponimlarni tahlil qilamiz.

Natijalar.Z.M. Bobur - asarning bosh qahramoni. Bobur nomi "yo'lbars", "jasur" ma'nolarini bildiradi. Bu nom qahramonning mardligi, qat'iyati va sarkardalik fazilatlariga mos keladi.

Boburning birgina maqsadi bobosi A. Temur barpo etgan davlatni qayta tiklash va u bu yo'lda, avvalo, ko'hna shahar Samarqandni qo'lga kiritish yo'lida olib borilgan bir nechta janglardan so'nggina Bobur Samarqandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Qutlug' Nigorxonim - mehribon va oqila ona obrazi. Ismdagi Qutlug' so'zi baxtli, muborak ma'nosini beradi va obrazning ulug'ligini ifodalaydi.

Umarshayx Mirzo- Boburning otasi. Mirzo unvoni temuriyodalarga xos bo'lib, uning yuqori tabaqaga mansubligini ko'rsatadi.

Xonzoda begim- dono va sabrli ayol obrazi. Xonzoda nomi "xon avlodi" degan ma'noni bildirib, nasl-nasab ulug'ligini ifodalaydi. Xonzoda begim ham asarda bosh qahramon hisoblanadi.

Shayboniyxon- asardagi asosiy siyosiy raqiblardan biri. Ismdagi xon qo'shimchasi hukmdorlik mavqeyini bildiradi. Boburning asosiy raqiblaridan biri.

Alisher Navoiy- ilm-fan va adabiyot ramzi sifatida tilga olinadi. Bu antroponim ma'naviyat va ijod timsoli vazifasini bajaradi.

Antroponimlarning badiiy vazifasi haqida gapiradigan bo'lsak, antroponimlar tarixiylikni kuchaytiradi. Haqiqiy tarixiy shaxslar nomlari asarning ishonchliligini ta'minlaydi. Turkiy va forsiy nomlar esa o'sha davr muhitini beradi.

Munozara."Ism qismatdir" deganlaridek, antroponimlar qahramonning xarakterini ochishga ham xizmat qiladi. Kishi ismlarining ma'nosi obraz tabiatiga mos keladi. Asarda muallif tarixiy shaxslar nomlaridan mohirona jonli tasvirlaydi. Asar davomida Xonzoda begim tomonidan ko'rsatilgan ko'plab qahramonliklarga duch kelishimiz mumkin. Ulardan biri Bobur Samarqandda hayot va o'lim orasida behush bo'lib yotgan paytida bundan xabar topgan. Andijon qal'a himoyachilarining bir qismi fitnachilar tomoniga o'tib ketadi, aynan shu paytda Andijonga yov bostirib kelayotganini ko'rgan Xonzoda begim erkakcha to'n va bo'rk kiyib, beliga kamar bog'lab, xanjar osib hayot-mamotlari qil ustida turgan qal'a himoyachilariga ko'makka boradi. Bu harakati bilan u hatto ko'p yigitlarning qo'lidan kelmaydigan qahramonlikka qo'l urib, oz sonli jangchilar bilan qal'ani himoya qilishga urinadi.

Asar davomida Xonzoda begim inisi Boburni va oila a'zolarini himoya qilib, Samarqanddan sog'-salomat chiqib ketishlari uchun o'z orzulari va baxtini qurbon qiladi va yovuz shoh bo'lmish Shayboniyxonga turmushga chiqadi.

"Yulduzli tunlar" asari bunday qahramonliklarga boy asardir. Lekin ulardan eng ta'sirli qahramonlik Xonzoda begimning o'g'li Hurrashoh tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, hali 10 ga ham kirmasdan tog'asi Bobur uchun o'z jonini xatarga qo'yib, jangga kiradi va bir daydi o'q tufayli halok bo'ladi.

Badiiy asarda qo'llangan har bir ism ma'lum bir maqsadga xizmat qiladi. Yozuvchi qahramonga ism tanlash orqali uning xarakteri, kelib chiqishi, millati, dunyoqarashi va hatto taqdiriga ishora qilinadi. Ana shu jihatdan antroponimlar badiiy matnning muhim lingvistik va pietik unsurlaridan biri hisoblanadi. Antroponim- yunoncha "antropos" (inson) va "onyma" (nom) so'zlaridan olingan bo'lib, kishilar nomini o'rganuvchi onomastik birlikdir. Antroponimlarga ism, laqab, taxallus, unvon kabilar kiradi.

Roman yozishda Primqul Qodirov Bobur shaxsini to'laqonli ochib berishga harakat qiladi. Asarda badiiy to'qimalar ham uchrab turadi. Masalan, Tohir keyinchalik Tohir oftobachi obrazi. "Boburnoma" asarida Tohir shaxsi haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi, yozuvchi Tohirni o'zi yaratadi. Uni shunday ustalik bilan Bobur hayotiga olib kiradi. Dastlab Tohir va Robiya suhbatini bilan boshlangan asarda endi Tohir o'ziga munosib rol o'ynay boshlaydi. Bu orqali adib Boburning shunday do'sti bo'lishini xohlaydi. Tohir obrazi badiiy to'qimaning yuksak mahsuli desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchi uni Robiya ikkisining sevgisi orqali sezdirmasdan asarga aralashtirib yuboradi. Tohir obrazini ham shunday mukammallik bilan yaratadiki, unda chinakam insonga xos tanti fazilatlar ko'rsatib beriladi. Quva ko'prigining buzilishida ishtirok etgan Tohir keyinchalik Bobur xizmatiga o'tadi va unga xos navkarlari qatorida bo'ladi. Uning bu darajaga erishishi ham sevgisi sababli, Robiyani izlab shu yerga keladi. Eng qiyin damlarda ham Boburning yonidan ajralmaydi, unga sidqidildan xizmat qiladi va sevgisiga yetishadi. Robiyani topadi. Bobur o'z qo'li bilan yozgan asar "Boburnoma" ni yurtimizga olib kelish vazifasi unga yuklatiladi.

Xulosa. Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari XX asr o'zbek adabiyotida ulug' bobokolonimiz Z.M. Bobur shaxsini ochib berishda qimmatli asar hisoblanadi. Asar yozishda adib eng asosli manbaa " Boburnoma" ga suyangan bo'lsa-da, to'qima voqealar, obrazlar ham uchraydi. Ular asar qurilishida va Bobur shaxsini ochib berishda xizmat qiladi. Asardagi antroponimlar asarning muhim badiiy vositalaridan biridir. Ular orqali qahramonlarning xarakteri, nasl-nasabi, ruhiyati va tarixiy mavqeyi ochib beriladi. Muallif antroponimlardan mahorat bilan foydalanib, asarning tarixiylikini yanada kuchaytiradi. Barcha kitobxonlarga bu asarni o'qishni tavsiya qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Begmatov E. O'zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan- 2010.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018.
3. Sulstonova O'g'ilshod.(2020) Ilm sarchashmalari. Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali- Urganch. 2020-y. 8-son 190-193-betlar.

4. Sottorova N. P. Qodirovning Yulduzli tunlar romanida toponimlarning badiiy va tarixiylik xususiyatlari. Scholar published journal (ISSN 2181-4147)
5. Ko'chirma Nizomiddinov N. G'. Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti kitobidan olindi. Toshkent, 2010. 46-48-b.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Sharq nashriyoti. 2016.
7. [www. ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi).